



**MASCULINE-FEMININE UNITS OF ADDRESS IN
UZBEKISTAN AND TURKISH: GENDEROLINGUISTIC AND
PRAGMATIC ANALYSIS**

Tukhliyeva Yulduz Davlat daughter

Teacher

Uzbek State University of World Languages

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17336944>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 08th October 2025

KEYWORDS

gender linguistics, units of address, male speech, female speech, Uzbek language, Turkish language, sociolinguistics, emotional lexicon, professional terms, -im suffix, pragmatic analysis, speech culture.

ABSTRACT

The article studies the units of address in male and female speech from a gender linguistic perspective using the example of the Uzbek and Turkish languages. Explaining the difference between gender and biological sex, the author shows how society's stereotypical views of masculinity and femininity affect speech behavior. The analysis covers factors such as social status, age, profession, formal and informal situation; features such as the affectionate function of the possessive suffix -im, the abundance of emotional-expressive units in women's speech, and the predominance of professional and vulgar vocabulary in men's speech are comparatively highlighted. Titles and deictics such as "begim", "padişahum", "hazrat momo" in historical sources, euphemistic forms such as "canim", "jonim" in modern speech, and negatively colored insults such as "khumpar", "chyort", "jouvonmarg" are classified semantically and pragmatically. As a result, a complex system of reference units is revealed, which is formed in accordance with gender, social environment, and cultural context; the research demonstrates its relevance for sociolinguistics, pragmatics, and cultural studies.

**O'ZBEK VA TURK TILLARIDA ERKAK-AYOL MUHOJAAT BIRLIKHLARI:
GENDEROLINGVISTIK VA PRAGMATIK TAHLIL**

Tuxliyeva Yulduz Davlat qizi

O'qituvchi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17336944>

ARTICLE INFO

ABSTRACT



Received: 01st October 2025

Accepted: 07th October 2025

Online: 08th October 2025

KEYWORDS

*genderolingvistika, murojaat
birliklari, erkaklar nutqi, ayollar
nutqi, o'zbek tili, turk
tili, sotsiolingvistika, emotsional
leksika, kasbiy atamalar, -im
qo'shimchasi, pragmatik
tahlil, nutq madaniyati*

Maqolada erkaklar va ayollar nutqidagi murojaat birliklari o'zbek hamda turk tillari misolida genderolingvistik nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Muallif jins (gender) va biologik jins o'rtasidagi farqni izohlar ekan, jamiyatning erkaklik va ayollik haqidagi stereotipik qarashlari nutq xulqiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Tahlil ijtimoiy maqom, yosh, kasb, rasmiy-norasmiy vaziyat kabi omillarni qamrab oladi; -im egalik qo'shimchasining erkalash funksiyasi, ayollar nutqidagi emotsional-ekspressiv birliklarning ko'pligi, erkaklar nutqidagi kasbiy va qo'pol leksikaning ustuvorligi kabi xususiyatlar qiyosiy yoritiladi. Tarixiy manbalardagi "begim", "padişahum", "hazrat momo" singari titul va deiktiqlar, zamonaviy nutqdagi "canim", "jonim" kabi evfemistik shakllar va salbiy bo'yoqdor "xumpar", "chyort", "jouvonmarg" tipidagi haqorat so'zlari semantik-pragmatik jihatdan tasniflanadi. Natijada murojaat birliklarining jins, ijtimoiy muhit va madaniy kontekstga mos ravishda shakllanadigan kompleks tizimi ochib beriladi; tadqiqot sotsiolingvistika, pragmatika va madaniyatshunoslik uchun dolzarbligini namoyon etadi.

KIRISH

Insonlarning o'zaro muloqotida erkak va ayollar nutqining farqlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy rollariga bog'liq holda shakllanadi. Ma'lumki, sotsiologiya va psixologiya fanlarida "gender" tushunchasi biologik jinsdan farqli o'laroq, ijtimoiy tushuncha sifatida qaraladi. Bu tushuncha jamiyatda erkak va ayollarga xos xususiyatlar asosida shakllangan "ijtimoiy jins" konsepsiyasiga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, gender tadqiqotlari jamiyat tomonidan qabul qilingan erkaklik va ayollik (maskulinnost va feminizm) xususiyatlariga xos axloqiy me'yorlarni o'z ichiga oladi. Ushbu me'yorlar ichida muloqot xulqi markaziy o'rin tutganligi sababli, gender masalalarini lingvistik nuqtai nazardan o'rganish zarurati yuzaga keldi. Natijada, genderolingvistika alohida tadqiqot sohasi sifatida shakllandi.

Kundalik hayotda o'zaro muloqot jarayonida shaxsning ijtimoiy roli doimiy ravishda saqlanib, uning nutqiga va xatti-harakatlariga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi. Bu holat, ayniqsa, erkak va ayollarning fikrlarini ifodalashda qo'llaydigan nutqiy strategiyalari, kommunikativ maqsadlariga erishishda foydalanadigan til birliklarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday farqlanish, xususan, murojaat shakllarida aniq ko'rinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR



Jamiyatda aloqa-aralashuv jarayoni, nutqiy muloqot shakllari xususan, murojaatni ifodalovchi birliklarni tadqiq qilishga qiziqish XX asr oxirlarida paydo bo'ldi. Dunyo tilshunosligida o'zaro muloqot tushunchasi bevosita inson omili bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy munosabatlar, nutqiy faoliyat, muloqot vaziyati, milliy-madaniy qadriyatlarga uyg'un ravishda namoyon bo'ladi [3]. Murojaat birliklari va ularning xususiyatlari yuzasidan rus tilshunosligida ham, turkiy tilshunoslikda ham qator ishlar yaratilgan.

R. Broun va A. Gilman, M. Ford, S.M. Ervin-Tripp, A.J. Vuton, Y. Dikkey, J. Lich, M. Klaynlarning tadqiqotlarida shu yo'nalishdagi muhim masalalar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bugungi kungacha jahon tilshunosligida N.N. Troshina, T.V. Nesterova, V.B. Chernik, Y.A. Plyaskova, Ibraxim Bagna, N.I. Formanovskaya, A.A. Balakay, I.V. Sherbinina, Y.A. Aysakova, B.I. Ixlyasova, V.Y. Goldin, Kan Sin Min, V.V. Zvyaginseva, Y.A. Zavalko, T.S. Jukova, A.A. Brikova va boshqalar tomonidan murojaatning sintaktik funksiyalari, semantik-stilistik va ijtimoiy xususiyatlari borasida izlanishlar olib borilgan. Diskurs nazariyasi va pragmatika, murojaat shakllari hamda ularning tasnifiy asoslariga e'tibor qaratilgan.

O'zbek tilshunosligida E. Begmatov, B. O'rinboyev, R. Qo'ng'urov, Sh. Safarov, Sh.M. Iskandarova, S.M. Mo'minov, N. Mahmudov, R. Rasulov, D.M. Teshaboyeva, A.J. Omonturdiyev, A. Aripova, Z.A. Akbarova, N. Ahmedova, Sh. Sodiqova va boshqalar nutqiy muloqot shakllari, muloqot odobi, murojaat shakllarining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Z. Akbarova undalma, so'roq va buyruq gaplarni murojaat shakli sifatida o'rgangan. Olima o'z tadqiqotida murojaat ifodalashning ekstralingvistik usullariga e'tibor qaratgan. S. Mo'minov nutqiy muloqotning o'zbek madaniyatiga xos xususiyatlari, ijtimoiy faoliyatdagi lisoniy jihatlarini o'rgangan bo'lsa, murojaat birliklarining deskriptiv ko'rinishi, mazmuniy tuzilishi, konnotatsiyaning yuzaga chiqishi kabi masalalar N. Ahmedova tomonidan o'rganilgan. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspektda o'rganilishi M. Qodirova tomonidan tadqiq etilgan. Fatik muloqot xususida D. Hasanova, murojaat shakllarining struktural-morfologik xususiyatlari, leksik maydon tushunchalari Sh. Iskandarova tomonidan o'rganilgan [4].

Biz ushbu tadqiqotchilarning ishlariga tayangan holda, murojaat shakllarining gender jihatlarini sotsiopragmatik nuqtayi nazardan o'rganish hamda ularning turli tillardagi qo'llanilish xususiyatlarini tahlil qilishga e'tibor qaratmoqchimiz. Xususan, murojaat birliklarining semantik, stilistik va ijtimoiy funksiyalarini, shuningdek, ularning milliy-madaniy kontekstdagi ifodalanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida mavjud ilmiy ishlardan foydalanamiz.

NATIJALAR

Ayollar va erkaklarning muloqot madaniyati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning nutqidagi farqli jihatlar tilshunoslikda keng o'rganilgan bo'lib, ba'zi xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida maydonga keldi. Ushbu farqlanish muloqot madaniyatida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda bu borada muhim tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, S. Mo'minov [6]. va Sh. Iskandarovalarning ilmiy ishlari bu masalani yoritadi [5]. Muloqotning jinsiy xususiyatlari sotsiolingvistikaning asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Murojaat



shakllarini jins nuqtai nazaridan tahlil qilishda ikki yo'nalishni ko'rib chiqish lozim: erkak va ayollar nutqida qo'llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayol shaxslarga qaratiladigan murojaat shakllari.

Tarixiy davrlarda, xususan, tarixiy adabiyotda erkak va ayollar nutqining o'ziga xos farqlari aniq seziladi. Bu farqlanish murojaat shakllarida ham o'z aksini topgan. Murojaat shakllarining eng muhim xususiyatlaridan biri so'zlovchi va tinglovchining jinsiga bog'liq ravishda aniq namoyon bo'lishidir. Buni kundalik muloqot madaniyatida ham kuzatish mumkin. Masalan, ayollar nutqida "ovsin", "dugonajon", "egachi", shuningdek, turmush o'rtoqlariga nisbatan "dadasi" kabi murojaat shakllari qo'llaniladi. Tarixiy asarlarda, asosan, yuqori tabaqa ayollariga "begim", "xonim", "hazrat begim", "oliy nasab begim" kabi murojaatlar ishlatilgan. Sh.Iskandarova "egachi" murojaat shaklini ayollarga xos deb hisoblaydi, ya'ni bu shakl ayol so'zlovchilar tomonidan qo'llaniladi. XIV-XV asrlarda bu murojaat erkaklar nutqida opa-singillarga nisbatan ishlatilgan [4]. Rasmiy sharoitlarda qo'llaniladigan bu shakllar norasmiy muloqotda qarindoshlik terminlari bilan almashtiriladi. Ijtimoiy guruh a'zolari o'z rollarini o'zgartirganda, ularning nutqi ham shunga mos ravishda o'zgaradi. Hozirgi muloqot madaniyatida bunday shakllar deyarli qo'llanilmaydi, ammo tarixiy davrda ayollarga nisbatan keng tarqalgan edi.

Samarqand va uning atrofidagi shevalarda "xolamullo", "hazrat momo" kabi murojaat shakllari yoshi ulug' ayollarga nisbatan ishlatilgan. "Momo" qarindoshlik termini Qashqadaryo va Surxondaryo shevalarida kekka ayollarga qaratiladi. Murojaat shakllarining yoshga bog'liq ijtimoiy xususiyatlari o'zbek muloqot madaniyatining asosini tashkil etadi. O'zbeklarning milliy mentalitetida kommunikantlarning yoshini aks ettiruvchi hurmat kategoriyalari mavjud bo'lib, bu nutqiy etiketning barcha jabhalarida seziladi.

Turk tilidagi tarixiy manbalarni o'rganishda oliy tabaqa vakillariga qaratiladigan "agam", "beg kishi", "emir", "han", "hudavendigâr", "padişah", "şah", "paşa sultan" kabi murojaatlar shaxsning erkak ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, begona shaxslarga nisbatan "beg kishi", "hâce", "er", "yigit", "pehlivan", "üstad", "oğul" kabi shakllar erkaklarga xosdir. Ayollarga qaratiladigan "ana", "hatun", "kari", "kız", "nigâr", "süt nine", "hemşire" kabi murojaatlar esa ayol jinsini aks ettiradi.

Ayollar nutqida emotsional va baholovchi leksik birliklarning ko'pligi, kuchli ta'sirchanlik sezilsa, erkaklar nutqida kasbiy atamalar, sovuqqonlik va dag'allik xosdir. O'zbek tilida ayollar salbiy, erkaklar esa ijobiy his-tuyg'ularni ochiq ifodalashdan ko'proq chekinadi. Turk tilida ayollar nutqining o'ziga xosligini o'rganuvchi mutaxassislar ayollarning so'zlarni ehtiyotkorlik bilan tanlashini, qo'pol iboralardan qochishini va yumshoqroq ifodalarni afzal ko'rishini ta'kidlaydi. Ayollar nutq paytida ko'proq jestlardan foydalanadi, muloyim va sezgir munosabatda bo'ladi. Shuningdek, ayollar nutqiy vaziyatga mos murojaatlarni yaxshi biladi.

MUHOKAMA

O'zbek va turk ayollar nutqida tinglovchiga nisbatan emotsional munosabatning kuchli ifodalanishi kuzatiladi. Masalan: "O'zimning ulginam, suyanchiqqinam, onasi uni erkalab – dunyoda yashab yuribman-da, mening mehribonginam" (N.Eshonqul, "Urush odamlari"); "Ey iki gözüm nûrı, iy ana canı ne oldun?" (Demir ve Erdem, "Kadın"). Bu



misollardagi “ulginam”, “suyanchiqqinam”, “iki gözüm nûrı” kabi birliklar erkalash va yupatish ma’nolarini ifodalab, nutqning emotsionalligini ta’minlaydi. Shevaga xos variantlar til shaxsining namoyon bo’lishida muhim rol o’ynaydi.

O’zbek va turk tillarida ayollar nutqida “-im” egalik qo’shimchasi erkalash ma’nosini ifodalashda faol ishlatiladi. O’zbek tilida “o’zimning qo’zichog’im”, “o’zimning asalim” kabi shakllar, turk tilida esa “müdürüm”, “hocam” kabi kasbiy murojaatlar odob va hurmat ifodasi sifatida qo’llaniladi. X.Imomova tadqiqotida o’zbek tilida kattalarga murojaatda egalik qo’shimchalari ishlatilmasligini, bolalarga nisbatan esa muhabbat darajasini ko’rsatish uchun qo’llanilishini ta’kidlaydi [3]. Turk tilida bu qo’shimcha kasbiy murojaatlarda xushmuomalalikni ifodalaydi, o’zbek tilida esa bunday so’zlar bilan ishlatilganda bu ma’noni bildirmaydi.

B. Alimovaning “Badiiy matnda lisoniy shaxs namoyon bo’lishining sotsiopragmatik talqini” maqolasida o’zbek tilida “-im” affiksi bilan qo’llaniladigan murojaatlar statistikasi keltirilgan: “asalim – 32%, jonim – 30%, shakarim – 10%, shirinim – 8%, novvotim – 8%, qolgan 12% boshqa so’zlar va frazeologik birliklar” [1]. Har ikki tilda farzandlarga qaratiladigan erkalovchi murojaatlar jinsga bog’liq: turk tilida “arslanim”, “pahlavanim” o’g’il, “gulyuzlum”, “meleğim” qiz jinsini anglatrsa, o’zbek tilida “toychog’im”, “polvonim” o’g’il, “oyparham”, “farishtam” qizlarga ishora qiladi.

Nutqning ta’sirchanligini oshirishda ohang va urg’u muhim rol o’ynaydi. So’zlovchining tinglovchiga ijobiy munosabati bo’lsa, bu munosabatni ifodalovchi gaplar zanjirsimon bog’lanib, yaxlit mazmun hosil qiladi. Bu holat ayollar nutqida ustunlik qiladi. Masalan: “Xudo yorlaqasin sizni! Mendan qaytmasa, xudodan qaytsin, bolalaringizning rohatini ko’ring, iloyo, martabangiz ulug’ bo’lsin!” (N.Eshonqul, “Urush odamlari”); “Hey kirk eşüm, canim sana fida olsun kirk yoldaşum, neye aglarsız?” (Kan Turalı, “Kirk arkadaşım”).

Ayollar va erkaklar nutqining o’ziga xosligini belgilovchi omillardan biri ayollarning xushmuomalalik va hurmat ko’rsatishga ko’proq intilishidir. Masalan: “Voy uyingga bug’doy to’lgurlar, voy ko’paygurlar, kela qolinglar” (O’. Hoshimov, “Dunyoning ishlari”); “Vay begüm kardaş, muradına, maksudına ermeyen kardaş!” (Y.Yeğınobalı, “Genç kızlar”).

Erkaklar va ayollar nutqida murojaat shakllarining semantik turlari mavjud. Erkaklar nutqida qo’pol, so’kish va dag’al so’zlar ko’proq bo’lsa, ayollar nutqida emotsional ifodalar, qarg’ish so’zlar va his-tuyg’ular ustunlik qiladi. Quyida o’zbek tilida salbiy bo’yoqli murojaat shakllari tahlil qilinadi.

Erkaklar nutqidagi salbiy murojaatlar

1. **Xumpar:** Hazil aralash yengil so’kish shakli (“qurg’ur”, “shayton” kabi). Masalan: “Voy-bo’y, tirikmisan, xumpar, Toshkentga qachon kelding?” (G’. G’ulom, “Shum bola”). Salbiy bo’yoqi kam, ko’proq hazil maqsadida qo’llaniladi.

2. **Chyort:** Asl ma’nosi “shayton”. Sovuq va salbiy ta’sirga ega. Masalan: “Aha, yaxshi, yaxshi! A-a-auf, chyort, uyqu bosayapti” (T.Murod, “Ot kishnagan oqshom”). Ba’zan “xumpar” kabi ishlatiladi.

3. **Bandit:** Bosqinchilik yoki o’g’rilik bilan shug’ullanuvchi shaxslarga qaratiladi. Masalan: “Uh, hayvon, uh bandit!” (T.Murod, “Ot kishnagan oqshom”).



4. **Padar la'nati:** Qattiq haqorat, noqobil farzandlarga yoki tanbeh sifatida ishlatiladi. Masalan: "He, padar la'nati! Mana, bo'lmasa, mana!" (T.Murod, "Ot kishnagan oqshom").

5. **Ablah:** Tuban xulqli shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan: "E, ablah, sotqin!" (O'. Hoshimov, "Dunyoning ishlari").

6. **Sotqin:** Kuchli nafrat va xiyonat tuyg'usini ifodalaydi. Masalan: "E, ablah, sotqin!" (O'. Hoshimov, "Dunyoning ishlari").

7. **Maraz:** Yaramas, zararli nuqsonni bildiradi. Masalan: "Men bu marazni to'rt yildan beri bilaman" (A.Qahhor, "Ig'vogar").

Ayollar nutqidagi murojaatlar

1. **Tasadduq:** Yoshi ulug' ayollar nutqida sadaqa ma'nosida ishlatiladi, ijobiy bo'yoqqa ega. Masalan: "Barakalla, tasadduq! Umringizdan baraka toping" (O'. Hoshimov, "Dunyoning ishlari").

2. **-ichka qo'shimchali shakllar:** Erkalash ma'nosida, yosh shaxslarga qaratiladi. Masalan: "Minutochku, Gulichka!" (O'. Hoshimov, "Dunyoning ishlari").

3. **Juvonmarg:** Qarg'ish so'zi, yosh o'lganlarga nisbatan. Masalan: "Ha,-a, juvonmarg, qo'linga tushdingmi!" (O'. Hoshimov).

4. **Shallaqi:** Janjalkash shaxslarga qaratiladi. Ayollar nutqida xarakter sifatida, erkaklar nutqida qo'pol murojaat sifatida ishlatiladi. Masalan: "O'sha shallaqini urgan bo'lsa ajab qipti!" (U.Hamdami, "Sabo va Samandar").

5. **Sho'rlikkinam, qo'zichog'im:** Mehr-muhabbat, rahm-shafqatni ifodalaydi. Masalan: "Aylanay bolam, sho'rlikkinam!" (U.Hamdami, "Sabo va Samandar").

XULOSA

Ayollar nutqidagi salbiy murojaatlar so'zlovchining nafratini, shaxsga nisbatan salbiy munosabatini va u haqidagi ma'lumotlarni ochib beradi. Masalan: "Quvib chiqardim juvon o'lgurni!" yoki "Ha-a-a, juvonmarg, qo'linga tushdingmi!" (O'. Hoshimov).

Kundalik muloqotda shaxsning ijtimoiy roli uning nutqiga va xulqiga ta'sir qiladi. Bu ularning nutqiy strategiyalari va kommunikativ maqsadlariga erishish usullarida yaqqol namoyon bo'ladi, ayniqsa, murojaat shakllarida aniq seziladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Alimova, B. (2014). Badiiy matnda lisoniy shaxs namoyon bo'lishining sotsiopragmatik talqini [Master's thesis, Samarqand State University]. Samarqand. pp. 61.
2. Ataman, H.A. (2018). Türkiye Türkçesinde hitaplar [Doctoral dissertation, Ondokuz Mayıs University]. Samsun: Ondokuz Mayıs Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
3. Imamova, H. (2010). Türkiye Türkçesi ile Özbek Türkçesinde nezaket anlamı taşıyan seslenmeler. Atatürk Üniversitesi Türkiye Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, (2010), 365–372.
4. Iskandarova, Sh. (1993). O'zbek nutq odatining muloqot shakllari [Candidate dissertation, Tashkent State University]. Toshkent.
5. Iskandarova, Sh. (n.d.). O'zbek nutq odatining muloqot shakllari [Abstract of candidate dissertation]. Toshkent. pp. 19.
6. Mo'minov, S. (2020). O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari [Doctoral dissertation, Tashkent State University]. Toshkent.



7. Moydinova, E. (2024). Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tuzilmasining tahlili. Lingvospektr, 1(1), 36–41.
8. Qurbonova, M. (2014). Genderolingvistik tadqiq yangi paradigma sifatida. O'qituvchi Tilshunoslik Akademiyasi (O'TA), (2), 43–47.